

## “Kapalaklar O‘Yini” Romanida Badiiy Xronotopning O‘Ziga Xosligi

*To‘chiyeva Laylo O‘ktam qizi<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Ushbu maqola yozuvchi To‘xtamurod Rustamning “Kapalaklar o‘yini” (“Dengizni ko‘rmagan odamlar”) romanida xronotopning o‘ziga xosligiga qaratilgan bo‘lib, unda makon va zamondamutanosisibliklar hamda o‘ziga xosliklar ko‘rsatilgan. Romanda ushbu yg‘unliklar hamda nomutanosisibliklar qay maqsadda keltirilganligi maqolada sharhlangan.

**Kalit so‘zlar:** Modern adabiyoti, Baqahovuz, Xronotop, Zamon va makon, Sanjar Sodiqov, Mantiqiy mantiqsizlik, Xona xopotopi, Trolleybus xronotopi.

Ijod olamiga ilk qadamlarini allaqachon qo‘yib ulgurgan ijodkor To‘xtamurod Rustam o‘zining “Kapalaklar o‘yini” romani bilan o‘z kitobxonlarini lol qoldirdi. Ushbu roman yozilish uslubi, hamda kitobxoniga yetkazmoqchi bo‘lgan mazmunning qabariqligi bilan ajralib turadi. “Kapalaklar o‘yini” romani keyinchalik “Dengizni ko‘rmagan odamlar” nomi ostida to‘ldirilib qayta nashr etildi.

“Kapalaklar o‘yini” romani muallifning nasrdagi yagona romani hisoblanadi. Biz ushbu maqolamizda “Kapalaklar o‘yini” romanini o‘rganishda zamon va makon munosabatlari – xronotoplarga e‘tibor qaratdik. Maqolani yozish jarayonida, avvalo, xronotop chegaralarini belgilab olishga harakat qildik. Dastlab, xronotop so‘ziga biroz to‘xtalib o‘tsak.

Badiiy adabiyotda vaqt va makon birligini bildirgan xronotop tushunchasi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi ko‘plab olimlar xronotopga bag‘ishlab bir qancha ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. So‘nggi paytlarda tadqiqotchilar xronotoplarining tasnifiga tobora ko‘proq e‘tibor qaratayotganligi sir emas. Xronotopga yondashuv so‘nggi o‘n yilliklarda tobora kuchaydi. Ijtimoiy gumanitar fanlarning o‘zaro yaqinlashuvi natijasida xronotopning o‘rganish usullari tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda muallif va uning yangidan yangi qirralarini ochishda fanlarning o‘zaro tadqiqot usullari ko‘proq qo‘llanmoqda. Biz qanday badiiy asar o‘qimaylik, undagi makon va zamonning o‘ziga xosligi mavjud bo‘ladi. Makon va zamonda o‘ziga xosliklar mavjud bo‘lmas ekan, uning o‘rni sezilib turaveradi.

Barchamizga ma‘lumki, badiiy asarda vaqt va makon badiiy obrazning asosiy tarkibiy qismini tashkil etib, ular badiiy voqelikni yaxlit idrok etishga yordam beradi. Aytish kerakki, ijodkor ijod mahsuli atalmish asar yaratishda unga makon hamda vaqtni muallifning dunyoqarashini aks ettiruvchi subyektiv detallar bilan beradi. Natijada aynan bir badiiy asarning makoni va vaqtiga o‘xshamaydi. Eng asosiysi asarda keltirilgan vaqt hamda makon ko‘proq haqiqiy makon va vaqtdan ham biroz yiroq bo‘ladi.

Shunday qilib, adabiyotda xronotop bu- ma‘lum bir badiiy asarda o‘zlashtirilgan vaqt va makon munosabatlariga o‘zaro bog‘liqligidir. Baxtin ta‘kidlagan janrdan shakllantirish funksiyasida xronotop ham asosiy syujet tuzish funksiyasini bajaradi. Qolaversa, bu asarning eng muhim rasmiy mazmunli toifasi, ya‘ni badiiy obrazlarga poydevor qo‘yish adabiyotda xronotop-assotsiativ-intuitiv darajada idrok etiladigan mustaqil tasvirning bir turi. Xronotop asar makonini tartibga solib o‘quvchini unga kiritadi. Va shu bilan birga o‘quvchi ongida badiiy butunlik bilan atrofdagi voqelik o‘rtasida assotsiativ aloqalarni o‘rnatadi. Biz o‘rganayotgan “Kapalaklar o‘yini” romani ham o‘zining bir qancha badiiy xronotoplariga ega. Ushbu romandagi xronotoplarining ba‘zi o‘rinlarda a‘naviy tarzda va ba‘zi o‘rinlarda o‘ziga xos tarzda noodatiy qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Muallif Toshkentni SHOSH deya ta‘riflaydi. Va uning qayerdaligini aytadi. “*Shosh huv it o‘lgan joyda...*”<sup>2</sup>. Shoshni ta‘riflar ekan, uning nega keltirilganligini aytib ham o‘tirmaydi. Bu yerda makon va zamonda qarama-qarshilik holatlarini ko‘rishimiz mumkin. Asarda Shoshga berilgan ta‘rifga nisbatan filologiya fanlari doktori, professor Sanjar Sodiq shunday deydi. “*Romanda Toshkent so‘zi nuqul Shosh deya qo‘llanaveradi. O‘tmish yoki tarixiy masalalar ustida gap ketmaganda, deyarli hech kim hozir poytaxtimizni Shosh deb atamaydi. Shunga ko‘ra nuqul Shosh deyilaverishi o‘quvchiga erish tuyulishidan tashqari, romanda aks ettirilgan zamon va makon tasvirini xiralashtiradi. Romanni o‘qiy boshlagan kitobxon ha deb shosh- shosh degan qaytariqqa duch kelavergach, beixtiyor asar qaysi zamon haqida ekan? Unda juda qadim zamon voqealari aks etganmikin? Degani savollar ustida o‘yga toladi. Romanda Toshkentning qadim tarixiga oid birorta ham gap topa olmagandan keyin o‘quvchi Shosh so‘zi butunlay noo‘rin qo‘llanganligiga iqrar bo‘ladi*”<sup>3</sup>. Tanqidchining fikricha, ushbu ta‘rifni berishda ham zamon va vaqt xronotopida biroz xiralik vujudga kelgan. Biz ushbu xronotoplardan faqat ba‘zilarinigina tahlilga tortdik. Filologiya fanlari doktori, professor Uzoq Jo‘raqulov o‘zining “Nazariy poetika masalalari” kitobida “O‘tkan kunlar romani xronotopini bir necha qismlarga bo‘lib tasnif etganlar. Bular yo‘l xronotopi, shahar xronotopi, mehmonxona xronotopi, karvonsaroy xronotopi kabi bir

<sup>1</sup> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi

<sup>2</sup> Rustam.T. Dengizni ko‘rmagan odamlar.T.: Global books,2020.-B.270

<sup>3</sup> С.Содиков. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Пруст йўлида.Т.: Шарқ.2005-В115

qancha qismlarni tashkil etadi. Biz ham obyekt sifatida o'rganayotgan "Kapalaklar o'yini" romanini quyidagicha tasniflashga harakat qildik.

**Dengiz xronotopi.** Asarda keltirilgan dengiz xronotopi o'zining ramziy ma'nosiga ega. Asarda Nasimning dengizga qo'shilib oqib ketgisi keladi. Unga ergashgisi keladi. Romanda dengiz hurlik ramzi sifatida kiritilgan. Nasim esa shu hurlikka intiluvchi odam sifatida aks etadi. Ammo, savol tug'iladi, u nega hurlikka intilishi kerak? U kimga qaramki, hurlikka, ozodlikka intiladi? Asarda shu kabi ko'plab ramziy shtrixlar berilgan. Nasim qaram yoki qul emas edi. Faqat u o'zini o'rab turgan muhitdan va ijtimoiy hayotdan norizo, hammasiga qo'l siltab ketgisi keladi. *"Dengiz shovullab Nasimni o'ziga chorladi. To'lqinlar bir-biri bilan olishib charchamas edi. Ko'pirib shaxd ila qirg'oqqa kelib urilardi. Nasim esa hanuz ularga yetolmas edi. Sohil bo'ylab dengizga yo'l topmoq ilinjida xalloslab chopgani sari, ulardan uzoqlashib borardi."*<sup>4</sup>

**Baqahovuz xronotopi.** Baqahovuz, nega aynan Baqahovuz? Biz bilamizki adabiy asarlarda baqa, ya'ni qurbaqa ko'lmakda –botqoqda yashaydigan, vazifasi kecha-yu kunduz vaqillash bo'lgan biologik jonivor. Hovuz esa ma'lum miqdordagi suv to'planib, necha kun o'tsa-da, yerning o'zi tortib ketmaguncha hech qayerga oqib ketmaydigan barcha tomoni ma'lum bir to'siqlar bilan to'silib turuvchi suv to'planadigan joy. So'zning mazmuniga ko'ra Baqahovuz baqa yashaydigan joy ma'nosida kelmoqda. Ammo, asardagi barcha insonlar ushbu Baqahovuz nomi bilan ataladigan joyda istiqomat qilmoqda. O'z o'zidan savol tug'iladi, nima odamlar baqamidi-ki, ular shu nom bilan atalgan joyda yashasa. Yoki ijodkor bu bilan biror narsaga ishora qilyaptimikin? Bu bilan ijodkor odamlarning Baqahovuzda yashaydigan qurbaqalar misol o'z qobiqlariga o'zlari o'ralib qolayotganini, yashash tarzi ham xuddi qurbaqalardagidek butun dunyoni o'z ko'lmaklari deya tasavvur qilmoqda, undan boshqa olamni ko'rmagan va ko'rishni istashmaydi ham degan ma'nolarni yuqtirmoqchi bo'lgan. Aslida Baqahovuz, yozuvchi yashab turgan zaminda va zamonda bo'lmagan, lekin Toshkentning qadimda Shosh deya atalgani barchamizga ma'lum. Ijodkor ushbu o'rinda tarixda mavjud bo'lgan va umuman mavjud bo'lmagan joy nomlarini keltirib o'ziga xos konflikt hosil qilmoqda. O'z navbatida bu konflikt muallifning maqsadini yuzaga chiqarishga ko'maklashgan. Ya'ni, odamlarning faqat bir narsaga intilayotgani, buning uchun Baqahovuzdan chiqishi lozimligiga undayapti.

**Trolleybus xronotopi.** Asarning boshlanishi ushbu trolleybus voqealari bilan boshlanadi. Tayyoragohning gavjum bekati va pishillab kelayotgan trolleybus holati aks ettiriladi. Barcha voqealar ushbu trolleybusning ichida turtinib surtinib ketayotgan Badal Armonning xayollarida jonlanadi. Muallif xayolida trolleybusdagi tiqilinch holat Badal Armon bilan birga butun ziroatchilik va zirovarshunoslik kulliyotining bor bilimlarini bir chekkaga siqib qo'ygandek tuyuladi. Trolleybusdagi tiqilinch holat bilan ijodkor bilimli odamlar chekkaga siqilgan tuzumga ham ishora qilib o'tadi. Har tarafda ta'qiqlar, har tarafda cheklovlar, oqibatda ilmi shaxslarni qama-qama qilishlar. Bularning barchasini Badal Armon trolleybus timsolida odam yutadigan yuxoga o'xshatadi. Odamlarning hatto xayollarida ham erki siqilgan damlarni ijodkor Badal Armonning hatto xayolida ham chekishga harakat qilishi, xayolida ham erkin bo'la olmagan bilan taqqoslagandek go'yo. Undan keyingi jarayonlar esa Badal Armonning ichki o'y-xayollari negiziga qorishib ketadi. Badal Armon xayolida trolleybus yuxoga o'xshatiladi. Ya'ni, pishillab odam yutayotgan yuxoga. Aslida ushbu trolleybus xronotopi Badal Armonning o'y-xayollari qorishib ketishi uchun asarga ataylab kiritilgan bir element bo'lgan. Agar Badal Armon trolleybusga chiqmagandan va ushbu tiqilinch xolatga duch kelmaganda trolleybusni alohida xronotop sifatida o'rganish ham unchalik to'g'ri bo'lmas edi.

**Chorbog' xronotopi.** Bunga Tosh tog'aning devori nurab yotgan chorbog'ini misol qilib keltirish o'rinli. Keyingi o'rinlarda nurab qolgan chorbog'ining devorini tuzatish uchun olib kelingan mardikor yigit taqdiri, yakka-yu yagona qizining hali tanishib ham ulgurmagani, kimligi ham hech kimga ma'lum bo'lmagan, mardikor yigit bilan uydan qochib ketishi, Tosh tog'aning oyoq ostida yotgan loy yuqi pachoq paqirni tepib o'tishiyu- nihoyat, so'nggi soniyalarda taqillagan eshikni ochganda oxirgi umidi ham singanligini, eshik ortida qizi emas Ji-Ti, ya'ni saqich qilib cho'zib aytganda, jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib chiqqandagi holati tasvirlanadi. Ushbu chorbog' xronotopi asarga aynan Tosh tog'aning holatini yanada kuchaytirish uchun kiritilgan desak to'g'ri bo'ladi. Chunki, romonda chorbog'ning eskiligi, uning devori nurab, pastqamgina tekislik bo'lib qolgan holati keltiriladi: buni quyidagi so'zlardan bilishimiz mumkin. *"...bir yog'sa tinishni unutadigan yomg'ir va jalalar kasofat devorni butkul yuvib bitirib yer bilan teng qilib shibbalab endi faqat uning bodi bilan o'chakishga o'tishgan."*<sup>5</sup> Aslida Chorbog' eski edi. Uning devorlari ham eski edi. Chorbog'ning faqatgina nuragan devori emas, butunlay har tarafini o'zgartirsa ham bo'lardi. Lekin ijodkor Tosh tog'aning aslo tark etishni istamagan o'tmish xotiralarini ushbu devor va chorbog' orqali tasvirlashga intiladi. Ya'ni, xotiralarini unutishni istamagan, hayotida boshqa bir yangilik qilmagan, qilishni ham istamagan ota hissiyotlarini chorbog'ning nuragan devorini qayta-qayta tiklashga urinish holati bilan qiyosan tahlil qiladi. Bu bilan Tosh tog'a o'ziga qadrdon bo'lgan narsalarni aslo yo'q bo'lib yoki boshqasiga o'zgartirishni xohlamagan kayfiyatini ham ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ammo, Tosh tog'aning ushbu e'tiqodiga zid o'laroq, qizi mardikor yigitning etagidan tutib "Shosh qayerdasan" deya uydan qochib ketadi. Yozuvchi ushbu ikki holatni qarama-qarshi qo'yib o'zaro konfliktni yuzaga keltirgan. Ya'ni, mazmun va mohiyatni chuqurroq anglatish maqsadida ushbu tasvir uslubidan foydalangan. Va chorbog' xronotopidan Tosh tog'aning xarakter xususiyatini, uning ruhiyatidagi turg'unliklar-u, hozirda kechayotgan evrilishlarni ko'rsatish maqsadida foydalangan.

**Xona xronotopi.** Ushbu xronotop esa barcha voqealar markazida turgan qahramonimiz Badal Armon hamda uning akasi Go'yibning holatini aks ettirishga xizmat qiladi. G'oyib urushdan qaytgandagi holati Badal nigohi ila roviy tilidan aytib

<sup>4</sup> Rustam.T. Dengizni ko'rmagan odamlar.T.: Global books.2020.-B.445.

<sup>5</sup>Rustam T. Dengizni ko'rmagan odamlar.T.: Global books,2020.-B.272.

o'tiladi. Ya'ni, G'oyib urushdan sog'-omon qaytdi. Lekin uning holatini sog'-omon deb bo'lmasdi. Badal kechalari uyg'onib ketganda G'oyibni g'alati ahvolda ko'rardi. G'oyibning uxlay olmasdan kechalari allmahalgacha u yoqdan bu yoqqa yurib, tunni oromsiz o'tkazganiga guvoh bo'lardi. Bundan tashqari, xuddi shu xonada Badal Armonning o'y-xayollari sira tinchlik bermasdi. G'oyib esa hali u tomonga, hali bu tomonga ag'nar, nimadandir hadiksirar, ingrar edi. Keyingi kunlarda esa Badal Armon G'oyibning xuddi o'spirin davridagi kabi derazadan oshib, ko'chaga ketib qolish holatiga guvoh bo'ldi. *"Bora bora G'oyibning oqshom ketib, erta azonda qaytishi odat tusiga kirdi. Kechqurun oila davrasida gangu-gungir ovqatlanib, dasturxon yig'ilgani hamon u hammaga xayrli tun tilab, yotgani kirib ketardi. Ko'p o'tmay uning ketidan kirgan Badal xonani tirik jondan holi, derazani esa lang ochiq topardi."*<sup>6</sup> Albatta, G'oyibning holati, urushdan keyingi asoratlilar shaklida namoyon bo'ladi. Lekin aynan shu xonada ushbu voqealar sodir bo'layotganiga ijodkor alohida urg'u beradi. Ya'ni, zamonni, makonni xonada topadi. Bu ham asarning eng ta'sirchan jihatlaridan biridir. Bu kabi xronotoplarining barchasida odam obrazi voqealar markazida turadi.

**Tog' xronotopi.** Ushbu xronotop Sardor obrazi bilan bog'liq. Voqealar rivojida Sardorning qamaligani va qamoqdan chiqib, do'stlarining yoniga borgan holati tasvirlanadi. Hatto, U Badal Armonning yoniga kelganda Badal Armon ko'zlariga ishonmaydi. Sardor esa o'z odaticha qani kettik deydi. Badal bo'lsa, Sardorni yana o'sha eski bir paytlar shu sababli qamaligan Shumshukning sariq mashinasida ko'radi. Va yuragi ortga tortadi. Chunki yana nimadir sodir bo'lishidan qo'rqadi. Ammo so'nggi dam Badal qo'rqan, uning ko'nglini g'ash qilgan narsa sodir bo'ladi. Badal qo'rqan narsasining sodir bo'lishida ma'lum ma'noda o'zi ham abdor bo'ladi. Ya'ni, Sardor jarlikdan pastga qulaydi. Sardorning o'limidan keyin uning do'stlari, Badal, Ibod, Shoshiylar Sardor doim kelib, ochiq havoda faqat o'zi tanho qolganda ko'rmoqni istagan manzarasini qidirib topmoqchi bo'ladi. Uni qidirib topadi ham. Ushbu manzara tog' manzarasi edi. Ibodning yo'lbo'shiligi natijasida toqqa yetib kelishdi. Bu manzara haqiqatdan ham odamni hayratlantiradi. Pastda chiroqlar, ko'kda yulduzlar porlab, bir-biri bilan bahslashayotgandek. Sardor esa aynan mana shu bahsning yagona guvohi bo'lgan. Endi esa uning do'stlari ushbu holatni boshidan kechirmoqdalar. Sardorning bu siri endi do'stlariga ham ma'lumligi muallif tilidan aytib o'tiladi. Kunlardan bir kun Badal u yerga yolg'iz o'zi keladi. Sardorni qabrga qo'yishganlaridan keyin uch kun o'tib, u Sardorning sirli tog'iga keladi. *"Sardorni eslab u bu yerda uzoq o'tirdi birga quvlashib katta bo'lishgan shaharga sassiz tikilib..."*<sup>7</sup> Demak, Badal Armonning Sardor haqidagi o'ylari bilan bog'liq muxoraba ushbu makonda o'zining cho'qqisiga yetadi. Ya'ni, Sardorning ushbu maxfiy joyi hech kim bilmaydigan ammo, butun shaharni ko'rsa bo'ladigan betakror joyga nisbatan berilgan xronotop hisoblanadi. Tog' xronotopining kiritilishi, tog' manzarasining odamga zavq beradigan, uning inja tuyg'ularini jumbushga keltiriladigan makon sifatida tasvirlanishi va bu joy aynan Sardorninggina siri bo'lishi bilan muallif, Sardorning ichki olamini, uning siyratini naqadar g'o'zalligiga, uning haqiqiy Sardorligiga ishora qiladi, bu kabi joylarni kashf etish haqiqiy Sardorlarigagina xosligini ta'kidlaydi. Shuning bilan birga yozuvchi Sardor portretini go'yoki tabiat manzarasi orqali chizishga harakat qiladi.

**Bozor xronotopi.** Urushda G'oyibning eng yaqin safdoshlaridan biri bo'lmish Shahobning halok bo'lgan holatiga e'tibor qarataylik. Muallif tomonidan kunlarning birida butun askarlar karvoni bir qator bo'lib boshqa hududga ketayotganda, bozorni kesib o'tishiga tog'ri kelganligi aytilgan. Bozordan o'tish jarayonida Shahobning ko'zi qafasga solingan kaptarlarga tushadi. Muallif maqsadi ila G'oyibning tilidan Shahobning kaptarlarga qiziqishi va uyida uning bir qancha kaptarlari bo'lgani, hatto, ular bilan yana qayta diydor ko'rishishiga Shahobning qalbida katta umid borligi aytiladi. Bozordan o'tib ketayotgan safning oxirida ketayotgan shahobning ko'zlari rastalarda sotish uchun mo'ljallangan qafasdagi kaptarga tushadi. Shahob ushbu kaptarlarni ko'rmoq uchun savdo rastalari tomon engashar ekan, ushbu rastalar tagida hech narsaga e'tibor bermay, mudroq uyquda yotgan kichik bir odamga ko'zi tushadi. Oradan sal o'tmasdan bir gumburlagan ovoz eshutiladi-yu, orqasiga qaragan G'oyib voqealarning dahshatidan o'zini biroz yo'qotib qo'yadi. Uning Shahobni oldiga kelgan holati quyidagicha tasvirlangan. *"G'oyib yuragi ko'ngilsiz nimanidir sezib rasta tomon otildi. Rastadagi qafas o'sha-o'sha osig'liq turardi. Qafasdan pastroqda yaktak ishton kiyib boshiga salla o'ragan kimsa cho'k tushganicha mudrardi. Kimsaning qarshisida oyoq ostida ...tuproqqa qorilib... G'oyib bir lahza o'zini yo'qotdi. Vujudini titroq qopladi. -Shahob...- deb ayta oldi bazo'r. Bu ovoz allanechuk titrab chiqdi"*<sup>8</sup>. G'oyib Shahobni quchar ekan, qo'llari qon bo'ladi ana shundagina Shahobga nima bo'lganini angelaydi. Ammo, sal nariroqda yotgan odam hali hamon, mitti gavdasi bilan pishshillab uxlayotganini G'oyib keyin angelaydi. Bundan kitobxon taajjubga tushadi. Nainki kitobxon balki asar qahramoni ham bundan taajjubga tushganini muallif quyidagi so'zlar orqali izohlaydi. *"G'oyib kimsaga tikilganicha qotib qoldi. Baayni uni endi ko'rayotgandek. Baayni unga qadar bu tarz cho'k tushib mudragan kimsani hech qachon ko'rmagan kabi tuyqus nigohi kimsaning egnidagi qaydandir paydo bo'lgan mayda dog'larni ilg'adi. Oyoqlarida, yaktagida va hatto, boshidagi sallasida ham....G'oyibning birdan g'azabi qo'zidi. G'oyibning ko'zlariga qon to'ldi yelkasidagi osig'liq qurolining qo'ndog'i bilan kimsaning boshiga jahd ila tushirdi."*<sup>9</sup> Nahotki yonida odam o'ladi-yu u sezmaydi. Shahobning qoni uning oyog'iga yaktagiga, hatto, yuzidan o'tib sallasiga ham sachraydi-yu, bu boqi beg'am odam shirin tushlar og'ushida yotsa bu qanday loqaydlik. Bu mantiqsizlik orqali muallif asardan anglatmoqchi bo'lgan ijtimoiy muhitdagi befarqlikni, undagi loqaydsizlikni ko'rsatayotgandek go'yo. Muallif yuqtirmoqchi bo'lgan ma'no yanada ta'sirli bo'lishi uchun ataylab bozor makonini xronotop sifatida tanlaydi. Chunki odamlar eng ko'p to'planadigan joylardan biri bu bozor. Ushbu romanda urush bo'layotgani aytilgan va bozor tasviri keltirilgan ammo, urushning dahshati bozorчилarning yoki xarid qiluvchilarning birortasining yuz ko'zida yoki gap-so'zida keltirilmaydi. Shu yerda o'z-o'zidan mantiq biroz ortga

<sup>6</sup>Rustam T. Dengizni ko'rmagan odamlar.T.: Global books.2020.-B.463

<sup>7</sup>Rustam T. Dengizni ko'rmagan odamlar.T.: Global books.2020.-B.451.

<sup>8</sup>Rustam T. Dengizni ko'rmagan odamlar.T.: Global books.2020.-B.462

<sup>9</sup>Rustam T. Dengizni ko'rmagan odamlar.T.: Global books.2020.-B.462

chekinganini ko'rishimiz mumkin. Chunki, bir yurtda urush bo'lsa nafaqat shu yurtning o'zi balki unga qo'shni davlatlarda ham uning sovuq shamoli ma'lum vaqt kezib yuradi. "Kapalaklar o'yini" romanida esa bir tarafda odam portlab ketadi-yu, uning yonida yotgan, hatto, sallasiga qadar qon sachragan odam pinak buzmay mudrab yotadi. Bu yerda ijodkor bir qancha ramziy shtrixlar berib ketadiki, ushbu shtrixlarni kitobni bir marotaba o'qib chiqqan odam tushunishi amrimahol. Yozuvchi ushbu odamning yaktagi va sallasigacha qon ataylab sachraganini keltirib o'tgan. Bundan bilishimiz mumkinki, ushbu odam kim bo'lishidan qat'iy nazar u musulmondir. Balki o'zbek, balki afg'on, balki... Muallif yashagan va yoritmoqchi bo'lgan davrni hisobga oladigan bo'lsak, ushbu sallali mudrab yotgan odam o'zimizning o'zbeklar ekanligi ta'kidlangan. Chunki, bir qator adiblar shoirlar boshiga qiron kelgan davrda ham o'zimizning o'zbeklar mana shunday egnilariga begunohlarning qon donachalari sachragan loqaydlik, befarqlik liboslarini kiyib olishgan edi. Yozuvchi shunchaki o'sha davrdagi loqaydlik, befarqlik tanazzuliga ishora qilgan. Ushbu holatda yozuvchi mantiqdan maksimal darajada uzoqlashib, o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrni yaqqol yuzaga chiqargan. Va ataylab, yuzaga keltirilgan mantiqsizlik bilan muallif ma'lum darajada yutuqqa erishgan.

Adabiy asarlarning asosiy muhokamasi bu borliq va inson munosabatlari haqidagi tasavvurlarini yangilaydi. Asarni o'qir ekanmiz, unda zamon va makonning o'ziga xos tarzda ifodalanganiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, bir darvdan tezlikda boshqa davrga o'tilish holatlari seziladi. Bir voqeani ifodalayotganda unga mazmuni mos keladigan, yoki shu voqeani yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan, ammo, zamon va makoni umuman nomutanosib bo'lgan boshqa bir voqea keltiriladi. Avvaliga muallif diqqat markazi Badal Armonning ruhiy holatiga qaratilgan bo'lsa, keyin trolleybus tasviriga o'tiladi, ushbu tasvir yakuniga yetmasdan, bekat tasviriga o'tib ketiladi, so'ng yana Badal Armonning achchiq hissiyotlari qay tarzda to'xtatilib trolleybus tasviriga o'tilgan bo'lsa, xuddi shu holda to'xtab yana qahramon hissiyotlari tasviriga o'tiladi. Ushbu holatdagi tasvirlanishlarning o'zgachaligiga, o'ynoqiliga va urushdagi turli tasvirlarga nisbatan Sanjar Sodiq o'zining "Ijodning o'ttiz lahzasi" nomli kitobida quyidagicha ta'rif beradi. "*Xuddi tinimsiz Guldan gulga sakrab yuruvchi kapalaklar kabi roman voqealari yakkam-dukkam voqealar qariga sochilib yuborilgani sababli ularni muayyan davr yoki izchil yillar oqimiga mos holda tartibga solib tasavvur qilib bo'lmaydi.*"<sup>10</sup> Urush tasviriga alohida to'xtalib o'tsak. Asarda urushdan oldingi ijtimoiy holat qanday bo'lsa undan keyin ham xuddi shunday holda davom etadi. Butun dunyoda urush bo'ladi-yu, odamlarning turmush tarziga ta'sir etmaydi-mi? Urushga aynan mana shu Baqahovuzdan yigitlar olib ketiladi-yu, odamlar ijtimoiy hayotida yoki gap-so'zida nahotki zarracha o'zgarish bo'lmasa? Urushning bad nafasi tegmasa? Hatto "... urushda bolam qay ahvolda yuribdi ekan?..." degan xayol ham onaning tilidan keltirilmaydi. Bu o'quvchi kitobxonning mantiqdan biroz uzoqlashtiradi. Bu kabi me'yoridan ortiq darajada makon va zamondagi uzulishlar asarga sun'iy tarzda kiritilgandek tuyuladi. Ammo, muallif aytayotgan urush haqiqiy urushmikin, u qaysidir zamondagi urushni emas, insonlar o'rtasidagi oqibatsizlikni urush darajasiga ko'tarayotgandir balki. Arzimagan narsalarni deb odamlar yuz ko'rmas darajaga, hatto, bir-birini o'ldirish darajasiga borayotganini haqiqiy urush deya tasvirlayotgandir ijodkor.

Urush tasviriga yanada ko'proq urg'u beradigan bo'lsak, muallif tilidan G'oyibning urushga borgani va urushdan omon qaytgani aytiladi. G'oyibdan boshqa yana kimlarningdir urushga borgani va ba'zilarining qo'l-oyoqlari yo'q holda, ba'zilarining esa ruhiy hastalikka uchragan holda qaytib kelganliklarini bilib oldik. Ulardan farqli o'laroq, G'oyib urushdan sog'omon qaytib keladi. Lekin uning qaysi urushga borgani qancha payt urushda jasorat ko'rsatgani aytilmaydi. Bu hol kitobxonni biroz o'ylantiradi. Undan keyingi o'rinlarda bolalarning qilgan ishlaridan ham hech bir o'zgarish sezilmaydi. Xuddi vaqtning, zamonning ularga ahamiyati yo'qdek. G'oyib ham go'yoki urushga emas, qisqa vaqt ichida boshqa qayergadir borib kelgandek. Mana shu holatlarda, Tolstoy aytgan,- devorda turgan to'pponcha otilmay qolganga o'xshaydi. Ya'ni, urushni kiritdimi, uning dahshatini ham kengroq tasvirlash kerak. Chunki o'quvchi uning dahshatidan ta'sirlanib, G'oyibni eson-omon qaytib kelganiga urushni tugaganiga shukurlar qilsin. Ijodkorning ushbu uslubi o'quvchini biroz loqayd qilib qo'yishi mumkin. O'quvchi, hatto, urushda halok bo'lgan G'oyibning do'stiga ham achinmaydi. Chunki aynan urush ta'rifida biroz qisqalik va zamon va makondan uzoqlashish holatlarini ko'rishimiz mumkin. Bu kitobxonni qiziqishdan yiroqlashtirishi mumkin. Adabiyotshunos S.Sodiq o'zining "Ijodning O'ttiz lahzasi" kitobida roman haqida to'xtalib o'tadi va "Kapalaklar o'yini" romanidagi makon hamda zamonga nisbatan quyidagicha munosabat bildiradi. "... qahramonlar bilan ular yashayotgan davr orasida munosabatlar yaxshi ochib berilmagan", - deydi va buni isbotlashga ham harakat qiladi: "*Qahramonlarning ruhiyati badiiy tahlil qilinmaganligidan kelib chiqqan*" deydi va fikrini quyidagicha davom ettiradi. "*Qahramonlar yashagan urushdan keyingi yillarda insonning kosmosga uchishi amerikaliklarning oyga uchishi, sho'ro saltanatining parchalanishi, O'zbekistonning milliy istiqloлга erishishi, Afg'on muxorabasi kabi g'oyatda yirik ijtimoiy voqealar ro'y berdi. Bu xabarlar dunyoga yashin tezligida tarqaldi. Bizning qahramonlar esa Badal, Shoshiy, Ibod hali ham eshshakka ishqibozlik bilan shug'ullanadilar.*"<sup>11</sup> S.Sodiq fikrini davom ettirar ekan, bu qahramonlarning birortasi tilidan yangilikka intilish mana shu xabarlarini eshitganlik haqida biror gap keltirilmagan. Nahotki barcha narsaga qiziquvchan bolalar dunyoning har bir burchagiga yetkazilgan xabarga qiziqmasalar deb taajjublanadi. Ijodkor ataylab makon va zamonda nomutanosiblikni keltirib chiqargan degan fikrga keladi va buni yozuvchining kamchiligi deb baho beradi. Biz S.Sodiqning quyidagi jumllariga qo'shilamiz. Ijodkor ataylab shu kabi mantiqsizlikka qo'l urgan. Chunki yuqorida maksimal darajada mantiqsizlikka yo'l qo'yib yuksak mazmunga erishganiga guvoh bo'ldik. Bu jarayonlarda ham ijodkor insoniyatni mana shu mantiqsizlik, loqaydlik sari ketayotganini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Gapimizning isboti sifatida radio detaliga to'xtalamiz. Romandan ma'lum bo'lishicha, Badal Armonning xonasida radio bor. Badal Armon har kuni

<sup>10</sup> С.Содиқов. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Пруст йўлида.Т.: Шарқ.2005-В115

<sup>11</sup> С.Содиқов. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Пруст йўлида.Т.: Шарқ.2005-В.115

unda eshittirilayotgan eshittirishlardan xabardor bo'ladi. Hatto, ertalabki jismoniy mashqlarga oid eshittirishning radioboshlovchi bo'lgan qizning yoqimli ovozigina mahliyo ham bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu kabi radiolar deyarli barcha uyda mavjud. Barcha xonadon a'zolari ushbu eshittirishlarni tinglaydi. Ammo, ularning barchasi bu unda beriladigan yangiliklarga nisbatan befarq. Ularga yuqorida nomlari sanalgan, inson uchun illat hisoblangan eshshakka ishqibozlik hamda shu kabi holatlar muhim va qiziqarli. Bu bilan ijodkor Baqahovuzdagi butun insoniyat tanazzuliga ishora qilmoqda. S.Sodiq taajjublanganidek, ular radio yoki televizordagi yangiliklardan bexabar emas. Aksincha, ular bu yangiliklarga befarq va loqayd. Boxabar bo'lishni ham istashmaydi. Yozuvchi mana shunday odamlarni ko'rsatish maqsadida ataylab eng yuqori darajadagi mantiqsizlikka qo'l urgan. Ammo ong sarhadlarimizda yana shunday tendensiyalar ham mavjudki, ularni aslo inkor etolmaymiz. Badiiy asarni real hodisa deb bilmasligimiz lozim. Badiiy asarda eshshak eshshak bo'lmasligi, uy uy bo'lmasligi va boshqa detallar ham o'z ma'nosidan uzoqlashib majoziy ma'no hosil qilishi mumkin. Ayniqsa modernistik uslubda yozilgan har bir asarda yirik voqeadan tortib kichik bir detalgacha ramziy ma'no ifodalanishini yaxshi bilamiz. Muallif fikrini yuqtirish uchun har qanday ijodiy erkinlik qila oladi. Bu uning ijodiy salohiyatiga bog'liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Dengizni ko'rmagan odamar" T. Rustam Toshkent 2020 y
2. "Yoniq so'z" Qozoqboy Yo'ldoshev Toshkent 2006
3. Marg'uba Mirqosimova Mirqobilovna "Hozirgi adabiy jarayon" o'quv qo'llanma. Toshkent- 2008.
4. Normatov U "Bugungi nasrimiz tamoyillari" Jahon adabiyoti-1997 yil
5. Jo'raqulov U. "Nazariy poetika masalalari". T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
6. Jo'raqulov U. Qiyosiy adabiyotshunoslik. Lesson press-2021
7. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva.-T.:Fan 2006.
8. С.Содиқов. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Пруст йўлида.Т.: Шарқ.2005-б.115